

SOLIQ XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Mamatraimov Uchqun Xushmamatovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda soliq xavfsizligini ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda iqtisodiy, huquqiy, institutsional, ijtimoiy va tashqi omillarning soliq tizimi barqarorligiga ta'siri tizimlashtirildi. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat, optimal soliq yuklamasi va monitoring mexanizmlarining ahamiyati asoslandi. Natijalar soliq xavfsizligini mustahkamlash byudjet barqarorligi, tadbirkorlik faolligi va ijtimoiy ishonchni qo'llab-quvvatlaganini ko'rsatdi. Taklif etilgan yondashuv proaktiv boshqaruvni rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratdi.

Kalit so'zlar: soliq xavfsizligi, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, fiskal barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamlashtirish, soliq yuklamasi.

Аннотация. В тезисе были научно проанализированы теоретические и практические основы обеспечения налоговой безопасности. Были систематизированы экономические, правовые, институциональные, социальные и внешние факторы, влияющие на устойчивость налоговой системы. Обосновано значение цифровизации налогового администрирования, риск-ориентированного контроля, оптимальной налоговой нагрузки и мониторинга. Результаты показали, что укрепление налоговой безопасности способствовало бюджетной устойчивости, деловой активности и общественному доверию. Предложенный подход создал научную основу для развития проактивного управления налоговыми рисками и повышения эффективности фискальной системы.

Ключевые слова: налоговая безопасность, налоговая политика, налоговое администрирование, фискальная устойчивость, управление рисками, цифровизация, налоговая нагрузка.

Abstract. This thesis scientifically analyzed the theoretical and practical foundations of tax security. The study systematized economic, legal, institutional, social, and external factors influencing tax system stability. The importance of digital tax administration, risk-based control, optimal tax burden, and continuous monitoring was substantiated. The findings showed that stronger tax security supported fiscal stability, business activity, and public confidence. The proposed approach provided a scientific basis for proactive tax risk management and more effective fiscal governance.

Keywords: tax security, tax policy, tax administration, fiscal stability, risk management, digitalization, tax burden.

Kirish. Soliq xavfsizligi davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim tarkibiy unsur hisoblanadi. Globallashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik, xalqaro kapital harakatining faollashuvi hamda raqamli iqtisodiyotning

kengayishi sharoitida soliq tizimining barqarorligi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylanmoqda. Soliq tizimi nafaqat byudjet daromadlarini shakllantiradi, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, investitsion faollikni ragʻbatlantirish, daromadlarni qayta taqsimlash va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash vazifalarini ham bajaradi.

Soliq xavfsizligi davlatning moliyaviy mustaqilligi, byudjet tushumlarining barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishning uzluksizligini taʼminlovchi tizim sifatida talqin etiladi. U soliq tizimining ichki va tashqi tahdidlarga bardoshlilik, soliq bazasining yetarliligi, soliq tushumlarining barqarorligi, soliq maʼmurchiligining samaradorligi va soliq siyosatining moslashuvchanligini qamrab oladi. Shu bilan birga, soliq xavfsizligi fiskal manfaatlar bilan biznes subyektlari va aholining iqtisodiy manfaatlari oʻrtasidagi muvozanatni saqlashni talab qiladi.

Soliqlar davlat faoliyatini moliyalashtirish vositasi sifatida klassik iqtisodchilar tomonidan ham eʼtirof etilgan. Keyinchalik keynschilik yondashuvi soliq siyosatini iqtisodiy sikllarni tartibga solish, talabni boshqarish va bandlikni qoʻllab-quvvatlash vositasi sifatida asoslab berdi. Zamonaviy qarashlarda esa soliq xavfsizligi iqtisodiy, huquqiy, institutsional va ijtimoiy komponentlarni birlashtiruvchi fanlararo kategoriya sifatida namoyon boʻladi.

Asosiy qism. Soliq xavfsizligi davlat moliyaviy tizimining barqaror faoliyat yuritishini taʼminlovchi muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Uning mazmuni faqat byudjet daromadlarini shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki soliq bazasining yetarliligi, soliq tushumlarining barqarorligi, soliq maʼmurchiligining samaradorligi, soliq toʻlovchilarning intizomi hamda fiskal xavflarga moslashish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan soliq xavfsizligi iqtisodiy, huquqiy, institutsional va ijtimoiy omillar birligida namoyon boʻladigan murakkab tizimli kategoriya sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq xavfsizligi moliyaviy xavfsizlikning tizim hosil qiluvchi tarkibiy elementi sifatida qaraladi. Uning barqarorligi davlatning oʻz funksiyalarini uzluksiz moliyalashtirishi, ijtimoiy majburiyatlarni bajarishi va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi bilan bevosita bogʻliq. Soliq tushumlarining barqaror shakllanishi davlat byudjeti imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyaviy rejalashtirishning aniqligini oshiradi va iqtisodiy jarayonlarda yuzaga keladigan oʻzgarishlarga moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq siyosati iqtisodiy faollikni qoʻllab-quvvatlash, investitsiyalarni ragʻbatlantirish va tadbirkorlik muhitining barqarorligini taʼminlash vazifalari bilan uygʻun holda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq xavfsizligiga taʼsir etuvchi asosiy iqtisodiy omillardan biri soliq yuklamasining maqbul darajasidir. Soliq yuklamasining iqtisodiy rivojlanish surʼatlari, korxonalar moliyaviy imkoniyatlari va aholining daromadlari bilan mutanosibli soliq bazasining barqaror kengayishiga xizmat qiladi. Oqilona shakllantirilgan soliq yuklamasi tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlaydi, investitsion faollikni ragʻbatlantiradi va iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektor doirasida rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli soliq xavfsizligini

ta'minlashda fiskal manfaatlar bilan biznes subyektlarining iqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim metodologik tamoyil sifatida qaraladi.

Soliq ma'murchiligi sifati ham soliq xavfsizligining muhim determinantlaridan biridir. Zamonaviy sharoitda elektron hisob-fakturalar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, raqamli ma'lumotlar almashinuvi, elektron deklaratsiya va riskka asoslangan monitoring vositalarining qo'llanilishi soliq boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamlashtirish soliq organlariga katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, soliq xavflarini erta aniqlash va nazorat resurslarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Natijada soliq ma'murchiligi ma'muriy nazoratga asoslangan an'anaviy yondashuvdan ma'lumotlar tahlili va xavflarni oldindan baholashga asoslangan zamonaviy boshqaruv modeliga o'tadi.

Riskka asoslangan nazorat soliq xavfsizligini mustahkamlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda barcha soliq to'lovchilarga bir xil nazorat choralarini qo'llash o'rniga, iqtisodiy faoliyat xususiyati, moliyaviy ko'rsatkichlar, deklaratsiyalar dinamikasi va boshqa mezonlar asosida xavf darajasi baholanadi. Bunday yondashuv nazoratning aniqligini oshirish bilan birga, intizomli soliq to'lovchilarga tushadigan ortiqcha ma'muriy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu orqali soliq organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik yanada konstruktiv shaklga ega bo'ladi.

Huquqiy muhitning aniqligi va barqarorligi soliq xavfsizligi uchun alohida ahamiyatga ega. Soliq qonunchiligining tushunarli bo'lishi, huquq va majburiyatlarning aniq belgilanishi hamda soliq tartib-taomillarining bir xil qo'llanilishi soliq to'lovchilarning ishonchini oshiradi. Huquqiy normalarning izchil va tushunarli shakllanishi tadbirkorlik subyektlariga uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish imkonini beradi. Shu sababli soliq tizimini takomillashtirish jarayonida huquqiy barqarorlik, shaffoflik va tushuntirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Soliq xavfsizligining ijtimoiy jihatida ham muhim hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning soliq madaniyati, davlat institutlariga bo'lgan ishonchi va soliqlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini anglash darajasi ixtiyoriy rioya ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Soliq majburiyatlarining adolatli taqsimlanishi, davlat xizmatlarining sifati va byudjet mablag'laridan foydalanishning shaffofligi soliq tizimiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, soliq xavfsizligini faqat nazorat mexanizmlari orqali emas, balki sifatli xizmat ko'rsatish, maslahat berish va soliq to'lovchilar bilan ochiq muloqotni rivojlantirish orqali ham mustahkamlash mumkin.

Globallashuv va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi soliq xavfsizligining tashqi jihatlarini ham kuchaytirdi. Kapital harakatining tezlashuvi, transchegaraviy operatsiyalar, raqamli xizmatlar va ko'p millatli kompaniyalar faoliyati soliq bazasini himoya qilish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Bunday sharoitda xalqaro axborot almashinuvi, transfer narxlash mexanizmlarini takomillashtirish, transchegaraviy operatsiyalarni shaffoflashtirish va xalqaro

hamkorlikni kuchaytirish milliy soliq tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Hududlar kesimida soliq xavfsizligini baholash ham alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki hududlarning iqtisodiy salohiyati, tarmoq tarkibi, tadbirkorlik faolligi, bandlik darajasi va investitsion imkoniyatlari o'zaro farq qiladi. Shu sababli soliq tushumlari dinamikasi va soliq salohiyatini faqat umumrespublika ko'rsatkichlari asosida baholash yetarli bo'lmaydi. Hududiy indikatorlar tizimini shakllantirish orqali soliq tushumlarining barqarorligi, soliq bazasining kengligi, faol soliq to'lovchilar soni va iqtisodiy faollik kabi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish mumkin bo'ladi.

Soliq xavfsizligini samarali boshqarish uchun indikatorlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim tarkibiga soliq tushumlarining byudjet daromadlaridagi ulushi, soliq qarzdorligi darajasi, soliq bazasining o'sish sur'ati, soliq ma'murchiligi xarajatlari, ixtiyoriy rioya darajasi, raqamlashtirilgan xizmatlardan foydalanish ko'lam va xavfli operatsiyalar ulushi kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin. Mazkur indikatorlarning muntazam monitoringi soliq xavfsizligi holatini baholash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni erta aniqlash va zarur boshqaruv choralarini belgilash imkonini beradi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari soliq xavfsizligi davlatning moliyaviy barqarorligi, byudjet tushumlarining uzluksizligi va iqtisodiy rivojlanishning izchilligini ta'minlovchi muhim tizimli omil ekanligini ko'rsatdi. Soliq xavfsizligi faqat soliq tushumlari hajmi bilan emas, balki soliq tizimining barqarorligi, adolatligi, moslashuvchanligi, soliq ma'murchiligi samaradorligi va mavjud xavflarga tezkor javob bera olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan, soliq xavfsizligini ta'minlash iqtisodiy, huquqiy, institutsional, ijtimoiy va tashqi omillarni o'zaro bog'liq holda boshqarishni talab etadi.

Tadqiqotda soliq yuklamasining maqbul darajasini saqlash tadbirkorlik faolligini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va soliq bazasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, elektron nazorat vositalaridan samarali foydalanish, riskka asoslangan monitoring tizimini rivojlantirish va ma'lumotlar tahliliga tayangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslandi.

Soliq xavfsizligining barqaror darajasini ta'minlashda soliq to'lovchilar bilan davlat organlari o'rtasidagi ishonchli munosabatlar ham alohida ahamiyatga ega. Soliq qonunchiligining aniqligi, xizmatlar sifatining yuqoriligi, fiskal jarayonlarning shaffofligi va soliq majburiyatlarining adolatli taqsimlanishi ixtiyoriy rioya darajasini oshirishga yordam beradi. Shu sababli nazoratga asoslangan yondashuv bilan bir qatorda profilaktika, maslahat, raqamli xizmatlar va xavflarni oldindan aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliq xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy modeli reaktiv nazoratdan proaktiv boshqaruvga o'tishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv fiskal xavflarni oldindan aniqlash, hududlarning soliq salohiyatini baholash, soliq tushumlarining

barqarorligini ta'minlash va yashirin iqtisodiyot ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish imkonini beradi. Natijada samarali soliq siyosati byudjet barqarorligini mustahkamlash, tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda davlatning uzoq muddatli iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.
3. Varaksa, N., Korostelkina, I., Dedkova, E., & Konstantinov, V. (2020). Formation of tax security as a system-forming element of financial security. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, 90, 655–661. DOI: 10.15405/epsbs.2020.10.03.76.
4. Vykliuk, M., Mikhailishin, R., Kundytskyj, O., Senyshyn, O., Prokopenko, N., & Olikhovskiy, V. (2020). Conceptual basis of the state's tax security model. *Management Theory and Studies for Rural Business and Infrastructure Development*, 42(3), 303–315. DOI: 10.15544/mts.2020.30.
5. Korostelkina, I. A., & Dedkova, E. G. (2020). Налоги как инструмент обеспечения экономической безопасности территории. *The Journal of Economic Research & Business Administration*, 133(3), 103–119. DOI: 10.26577/be.2020.v133.i3.09.